

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.Xojimatov	
Globalashuv sharoitida musiqiy qadriyatlarining estetik ta'sirchanligining o'zgarib borishi va qadrsizlanishi jarayoni.....	442
B.S.Sobirov	
Aktorlik faoliyatini shakllantirishda aktyorlik san'ati xususiyatlari	448
D.A.Yuldasheva	
Yangi O'zbekiston sharoitida madaniyat va san'at sohasi rivojining takomillashuvi	451
I.I.Qirg'izov	
Nomoddiy madaniy meros tarkibiga kirgan shashmaqom janiriga aksiologik munosabatning yuksalishi	455
I.T.Yuldashev	
Jamiyat ma'naviy yangilanishi jarayonida miniatyura san'atining o'rni va ahamiyati	459
L.E.Tursunova	
Yangi O'zbekistonda yoshlar estetik madaniyatini milliy musiqa tarbiyasi asosida rivojlantirish vazifalari	462
M.Achildiyeva	
O'zbek musiqa san'ati rivojining tarixiy takomil bosqichlari va yo'llari	468
N.X.Djalalova	
Musiqiy madaniyat-yoshlar estetik tafakkurini yuksaltirishda muhim omillardan biri sifatida	473
N.R.Mansurova	
Raqamli texnologiyalar vositasida talabalarda milliy musiqiy merosni asrashga doir bilimlarini rivojlantirishning texnologik asoslari	478
O.R.Soliyev	
Barokko davrida san'atning o'ziga xosligi	488
R.A.Orziboyev	
Milliy musiqamizga doir Markaziy Osiyo mutafakkirlarining asarlari tahlili	491
R.J.Soxibov	
Naqqoshlikda kompozitsiya va uning qo'llanilishi	495
A.B.Sulaymanova	
The importance of modern innovative pedagogical technologies in teaching engineering graphics	500
U.T.Isakov	
O'zbek xalqi musiqa madaniyatining milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan o'zaro aloqadorligi	503
Z.A.Boboyeva	
Yoshlarning badiiy tasavvuri va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda tasviriy san'atning o'rni	508
J.Sh.Muydinov	
O'quvchilar ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda musiqa mashg'ulotlarining ahamiyati	511
N.M.Madaminov	
Oliy ta'lim tizimida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirishning ahamiyati	515
M.T.Yunusaliyev	
Akvarel texnikasida noan'anaviy yondashuv	518
D.Q.Oxunova, S.Sh.Hakimova	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy bilimlarni kognitiv idrok etish kompetensiyalarini rivojlantirishning zamonaviy texnologiya va metodlari	524
D.K.Rafikova	
O'quvchilarni kasbga yo'naltrishning pedagogik zaruriyati.....	528
S.H.Mamajonov	
Amir Temur mohir strategik.....	533
D.M.Xolikova	
Talabalarda innovatsion fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	536
O.S.Usmonova	
1-sinf o'quvchilarini mnemotexnika yordamida chiroyli yozishga o'rgatish	544



UO'K: 37.012.85

MUSIQIY MADANIYAT-YOSHLAR ESTETIK TAFAKKURINI YUKSAL TIRISHDA MUHIM OMILLARDAN BIRI SIFATIDA**МУЗЫКАЛЬНАЯ КУЛЬТУРА КАК ОДИН ИЗ ВАЖНЫХ ФАКТОРОВ ПОВЫШЕНИЯ ЭСТЕТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ МОЛОДЕЖИ****MUSICAL CULTURE AS ONE OF THE IMPORTANT FACTORS IN INCREASING THE AESTHETIC THINKING OF YOUTH****Djalalova Nigora Xusanovna**

Farg'ona davlat universiteti "Musiqiy ta'lim va madaniyat" kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya

Musiqiy madaniyat estetik, psixologik, ijtimoiy, kommunikativ va boshqa sohalar o'zaro bog'liq bo'lgan juda murakkab ta'limlardan biridir. Bu murakkab ta'limning asosi esa - musiqa bilan bog'liqdir. Musiqaning qadr-qimmatini odob-axloq bilan tanilgan bo'lib, komil va go'zallikka ko'tariladi.

Ushbu maqolada yoshlar estetik tafakkurini yuksaltirishda musiqiy madaniyatning muhim omillardan biri ekanligi haqida so'z yuritiladi.

Аннотация

Музыкальная культура – одно из сложнейших образований, в котором взаимосвязаны эстетическая, психологическая, социальная, коммуникативная и другие области. Основа этого сложного образования связана с музыкой. Ценность музыки определяется манерами, и она достигает совершенства и красоты.

В данной статье говорится о том, что музыкальная культура является одним из важных факторов повышения эстетического мышления молодежи.

Abstract

Musical culture is one of the most complex educations in which aesthetic, psychological, social, communicative and other fields are interconnected. The basis of this complex education is related to music. The value of music is recognized by manners, and it rises to perfection and beauty.

This article talks about the fact that musical culture is one of the important factors in improving the aesthetic thinking of young people.

Kalit so'zlar: musiqa, madaniyat, musiqiy madaniyat, musiqa falsafasi, axloqiy va estetik his-tuyg'ular, musiqiy did va ehtiyojlar.

Ключевые слова: музыка, культура, музыкальная культура, философия музыки, нравственно-эстетические чувства, музыкальный вкус и потребности.

Key words: music, culture, musical culture, philosophy of music, moral and aesthetic feelings, musical taste and needs.

KIRISH

Musiqiy madaniyat estetik, psixologik, ijtimoiy, kommunikativ va boshqa sohalar o'zaro bog'liq bo'lgan juda murakkab ta'limlardan biridir. Bu murakkab ta'limning asosi esa - musiqa bilan bog'liqdir. Musiqaning qadr-qimmatini odob-axloq bilan tanilgan bo'lib, komil va go'zallikka ko'tariladi. Platon va Aristotel musiqaning jamoat ishlarida tarbiyaviy, o'zgartiruvchi va tartibga soluvchi rolini tasdiqlash uchun juda ko'plab tadqiqotlar o'tkazishgan. Antik davrda musiqaning munosabat, shakllanish, jarayon, harakat kabi ma'naviy kategoriyalari tasdiqlangan.

Musiqa umuminsoniy qadriyatlarini shakllantirishda o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu o'ziga xoslik nafaqat shaxsning estetik-axloqiy ehtiyojlarini rivojlantirishda, balki yuksak axloqiy mazmunga ega musiqa qudrati doirasidagi ma'naviy madaniyatning yuksalishida ham katta ahamiyatga egadir.

Musiqa deganda nima tushuniladi o'zi, uning ahamiyati nimada ?

Musiqa - bu insonning hissiy holatiga ta'sir qiladigan tovush tarkibiy qismlarining muvofiqlashtirilgan kombinatsiyasi san'ati bo'lib, bu tasvirlar, fikrlar va his-tuyg'ularni yetkazishga

qaratilgan qat'iy chastota va vaqtni tashkil etadigan intonatsion xarakterdagi tovush faoliyatining o'ziga xos turidir.

Musiqa san'atning bir turi bo'lib, bizni yaxsh bo'lishga chorlaydi, u bizni ilhomlantiradi, unutilmas tuyg'ularni beradi. Musiqa tufayli inson orom olishi, dam olishi, tafakkuri uchun ma'naviy ozuqa olishi mumkin. Musiqa insonning kayfiyatini tubdan o'zgartirishga qodir (ko'ngilni ko'tarish, xafa qilish, sog'inchni his qilish). Musiqa insonning dunyoqarashini, hayotga munosabatini o'zgartirishi mumkin. Musiqa ruhiy holatni kuchaytiradi, his-tuyg'ularni, kayfiyatni ochib beradi. Hissiy jihatdan to'yingan, ruhiy yuksalish yaratadi, energiya beradi, ijodkorlikni, yangi narsalarni yaratishga ilhomlantiradi. Inson tug'iliboq musiqaqa talpinadi. U madaniy hayoyimizda keng o'rin egallaydi va shaxsni estetik tafakkurini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

G'arb mamlakatlari faylasuflaridan miloddan avvalgi IV asrdayoq yunon faylasufi Aflotun quyidagi g'oyani aytib o'tgan: "Musiqa ma'naviy tomondan inson ruhiga ma'lum darajada ta'sir qiladi, shuning uchun ham u yoshlar tafakkurining yuksalishiga ta'sir qiladi." Shuningdek, Aflotun: "Musiqa butun olamni ilhomlantiradi, ruhni qanotlar bilan ta'minlaydi, tasavvur parvozigga yordam beradi"-degan nazariyani ham ilgari surgan. Qadimgi Yunonistonda musiqa shifobaxsh kuchga ega hisoblangan. "Pifagor maktabi"da barcha o'quvchilar uyqudan avval ashula va madhiyalar bilan fikrlarini tozalaganlar. Aflotun: "Agar siz musiqani to'g'ri ishlatsangiz, u sog'likka foydali ta'sir ko'rsatadi"-deb aytgan.

Qadimgi yunon faylasufi, Aflotunning shogirdi Arastu esa musiqa haqida shunday degan: "Musiqa ruhning estetik tomoniga ma'lum darajada ta'sir qilishi mumkin"; "Musiqa axloqni yuksaltiradi".

"Musiqa eshitish sezgilari o'yinining qoidalariga asoslanib, uni jonlantiradi, uni turli yo'llar bilan hayajonga soladi, shuning uchun u go'yo hislar tildir, musiqa tovushlari ohangdir va quloq uchun bir xil xizmat qiladi. Ular his-tuyg'ularni bu makonda bo'lgan har bir kishiga etkazadilar va qatnashuvchilar ko'p bo'lsada, jamiyatni kamaymaydigan zavq bilan ta'minlab berishga qodirdir"-deydi nemis faylasufi I.Kant [1,b.389].

I.Kantning ushbu bayonotida musiqaning nafaqat insonga ta'siri, balki uning ijtimoiy ahamiyati ham qayd etilgan. Kant musiqaning idroki jamoaviy bo'lishi mumkinligiga, shaxsning estetik ehtiyojlarini qondirish ham birgalikda sodir bo'lishi mumkinligiga ham e'tibor berdi. Shuningdek, I.Kant musiqaing insoniyat taraqqiyotiga qo'shadigan yana bir muhim jihatini ta'kidlab o'tgan, ya'ni: "Musiqa, raqs va ijro-bu so'zsiz muloqotdir"-degan [2,b.526].

Haqiqatdan ham musiqalarni tinglasak, raqslarni tomosha qilsak, ijrolardan bahramand bo'lsak, ular qaysi davr ijodi bo'lmasin, biz o'zimizni huddi o'sha asr ijodkori bilan muloqot qilgandek, o'sha davrda yurgandek his qilamiz v.h.z.

Sharq mamlakatlari faylasuflaridan Abu Nasr Forobiyning (IX-X asrlar) musiqaga oid qarashlari ayniqsa diqqatga sazovordir. Forobiy musiqani tarbiyaviy ilm deb ataydi va uning ahamiyati haqida shunday deydi: "Ushbu fan xulq-atvori mutanosib yoshlarni muvozanatlashtirish uchun foydalidir, mukammal bo'lmaganlarni mukammal qiladi va muvozanati buzganlarning muvozanatini saqlaydi. Tananing sog'lig'i uchun ham foydalidir, chunki tana kasal bo'lganda, ruh o'ladi va tanada muammo bo'lganda ruh azoblanadi. Shuning uchun, tananing shifo topishi uchun ruh musiqa sadolari ostida davolanadi" [3].

Buyuk mutafakkir olim Ibn Sino (X-XI asrlar) o'zining ko'pab musiqiy-nazariy ishlari, tadqiqotlari bilan nafaqat Sharq musiqiy madaniyatiga, balki dunyo musiqiy madaniyatining rivojiga ham katta hissa qo'shgan. Ular tadqiqotlarning aniqligi, ilmiy asoslanganligi bilan ajralib turadi.

Uning musiqiy merosidan o'rin olgan risolalarida musiqaning afzalliklari, uning estetik jihatlari, undan oldingi olimlar tomonidan hal qilinmagan hamda ular uchun noma'lum bo'lgan muhim muammolari va ularning yechimlari izohlab berilgan. Musiqaning shaxsga emotsional ta'sirini hisobga olgan holda Ibn Sino musiqa estetikasi masalalariga katta e'tibor bergan. Bunda Ibn Sino ohangning psixoemotsional mohiyatini ochib berishga harakat qiladi. Bu borada Ibn Sino shunday deydi: "Ohanglarning harakatiga e'tibor bersak, baland tovushlarga nisbatan g'azab, zo'riqish tuyg'ularni keltirib chiqaradi, past tovushlarni eshitsak - yumshoqlik, kamtarlik, oqlanish hissini namoyon etadi. Ohanglarning bunday harakatlari inson qalbda hikmat va bashorat qiyofasini yaratadi" [4,b.91].

PEDAGOGIKA

Ibn Sino musiqaning inson hayotidagi o'rnini, uning tanaga ta'sir qilish tamoyillari haqida ko'plab risolalarida bayonotlar bergan, chunkinchi, "Tibbiyot fanlari kanoni" [5,145], "Muhabbat haqida" [6,b.22] va boshqalar.

Bu esa Ibn Sinoni musiqani har tomonlama tadqiqot qilganidan dalolat beradi.

Shuningdek, Ibn Zaylo (XI asr), Safiuddin al-Urmaviy (XIII asr), Maxmud ash-She'roziy (XIII asr), Abdulqodir Marog'iy (XIV asr), Abdurahmon Jomiy (XV asr), Zaylobiddin Xusayniy (XV–XIV asrlar) va boshqalar ham musiqa madaniyatining rivojlanishiga, uning shaxs estetik tafakkurining rivojidagi o'rnini haqida ko'plab tadqiqotlar olib borganlar [7, b. 13–14].

G'azal mulkingning sultoni, buyuk mutaffakkir shoir Alisher Navoiy o'z asarlarida musiqa tarbiyasining ahamiyatini chuqur o'rganib, shunday degan: "Musiqa jamiyat hayotining muhim negizidir. Faqat musiqagina odamning qalbiga tiniqlik, mutanosiblik olib kiradi va uni baxtiyor qiladi".

Mohir sarkarda Sohibqiron Amur Temur bobomiz ham hatto, janggi kirishdan avval qo'shinni ruhlantirishda shashmaqomni eshittirishlari, jangga kirishishda nog'oralari jo'rligida jangovarlik ruhini olg'a surganligi bizga tarixdan ma'lum.

Rus faylasuf olimlaridan XX asrning boshlarida juda ko'plari musiqa haqida tadqiqotlar olib borishib, o'z fikrlarini qoldirib ketganlar. Bulardan rus mutafakkir faylasufi Grigoriy Savvich Skovoroda musiqaning insonga foydali ta'sirlarini o'z asarlarida belgilab o'tgan. Uning qahramoni o'z dialoglaridan birida shunday deydi: "Musiqa qayg'uda katta dori va taskindir, baxtda esa zavqdir" [8,b. 113].

Shunisi e'tiborga molikki, bu davrda rus faylasuflarida musiqaga bo'lgan katta qiziqishni ko'rish mumkin. Ular musiqaning g'aroyib falsafiy mohiyatini o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib, tushuntirib berishga harakat qilganlar. Masalan, A.F.Losev musiqani Xudoga ibodat qilishning bir turi deb hisoblagan. P. A. Florenskiy esa musiqani cherkov nizomiga muvofiq Xudoga sig'inishning ritimli hayot beruvchi kuchi, deb ta'rif bergan. N. O. Losskiy musiqani shunday ta'riflaydi: "Musiqa - bu shunday tovushlarki u ko'rinadigan va ko'rinmaydigan narsalarning birlashib ketishidir". I.I.Lapshin musiqa va falsafaning uyg'unligini ayniqsa kompozitor Skryabin ijodida ko'radi. Ye.N.Trubetskoyning ta'kidlashicha hayotning ma'nosi inson uchu falsafa tufayli ochiladi, bu esa unga hayotining mazmuni - Xudo bilan birlashishda ekanligini tushunishga yordam beradi [9,b.23]. Bunday birlashish insondan ijodiy faollikni talab etadi. Bunday faollikning eng yorqin namunasi - musiqa ekanligini ta'kidlaydi.

Falsafada yo'nalishlaridan biri bo'lgan musiqa falsafasi fanlararo fan bo'lib, u vaqtning o'zida musiqashunoslik, falsafa, sotsiologiya, psixologiya, madaniyatshunoslik va pedagogika sohalariga mansubdir. Shuningdek, musiqa falsafasi faniga ma'lum bir musiqiy-estetik tamoyillarini shakllanishi bilan bog'liq bo'lgan ba'zi matematik ("Musiqa - bu arifmetikada ruhning ongsiz mashqidir.") [10] va boshqa kompetentsiyalarni ham kiritish mumkin ("...musiqa son, son munosabatlari, umuman matematika va uning alohida nazariyalari bilan chambarchas bog'liq. Matematika son haqida mantiqiy gapiradi, musiqa bu haqda ifodali gapiradi" [11].

Musiqa falsafasini musiqiy estetikadan farqi bo'lib, u o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Musiqa falsafasi estetika yo'nalishlaridan biri bo'lib ontologik, gnoseologik va aksiologik xarakterdagi muammolarni hal qilish bilan shug'ullansa, musiqiy estetika ko'proq musiqiy muammolarni hal qiladi va uslubiy yo'nalishi tufayli maxsus ilmiy fan sifatida tan olinadi [12].

Tafakkurning shakllanishi jarayonlarida musiqa madaniyati katta rol o'ynaydi. Musiqa donolik va falsafadan yuqori. Musiqa fikrlay olmaydi, lekin u fikrni mujassamlashtira oladi. Musiqa haqiqatan ham umuminsoniy tildir.

Musiqa - bu yoshlarning musiqiy-estetik madaniyatni shakllantirishning eng kuchli vositasidir. Tarix musiqiy madaniyat ta'sir qilmagan bironta sivilizatsiyani yoki allomani bilmaydi. Inson dunyosi musiqa bilan to'ldirilgan va u ob'ektiv ravishda inson uchun zarurdir. Yoshlarning musiqiy-estetik madaniyatini shakllantirishning asosi musiqani idrok etishdir. Musiqani idrok etish jarayonida ularning hayotiy va musiqiy tajribalari ortadi, musiqani nafaqat eshitib, balki uni tahlil qila boshlaydilar. Mana shundagina musiqiy madaniyat o'zining estetik vazifasini bajargan bo'ladi. Shunday qilib, to'g'ri shakllantirilgan musiqiy-estetik tarbiya yoshlarning estetik tafakkurini boyitadi va kelajakda o'z yurtining munosib fuqarosi bo'lib yetishishida katta ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev aytganlaridek: "Musiqa - hech narsa bilan o'Ichab, solishtirib bo'lmaydigan beqiyos ilohiy ta'sir kuchiga ega"!

NATIJAR VA MUHOKAMA

Falsafa va estetikada musiqiy madaniyatning ulkan tarbiyaviy salohiyati: insonning g'oyaviy, axloqiy (mehr-oqibat, rahm-shavqat, keksalarga hurmat va h.x.o) fazilatlarini shakllantirishga faol ta'sir ko'rsatish qobiliyati, uning ijodkorligi, intizomi, yuksaklikka intilishi ta'kidlanadi. Ko'plab mutafakkirlar musiqa madaniyatining shaxs estetik tafakkurini yuksaltirishdagi ahamiyati haqida gapirib o'tganlar. Miloddan avvalgi IV-asrda Aflotun shunday degan edi: "Eng muhim tarbiya vositasi musiqa san'ati emasmi, chunki usul va uyg'unlik eng avvalo ong ichini qamrab oladi". Bu borada Aristotel esa shunday yozib qoldirgan edi: "Musiqa madaniyati inson borlig'ining zarur ma'naviy atributi bo'lib, u ongning axloqiy-estetik tomoniga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatishga qodir".

Musiqa madaniyatining qadr-qimmatini odob-axloq bilan tanilgan bo'lib, komil va go'zallikka ko'tariladi. Platon va Aristotel musiqaning jamoat ishlarida tarbiyaviy, o'zgartiruvchi va tartibga soluvchi rolini tasdiqlash uchun juda ko'plab tadqiqotlar o'tkazishgan. Antik davrda musiqaning munosabat, shakllanish, jarayon, harakat kabi ma'naviy kategoriyalari tasdiqlangan.

Musiqiy madaniyat estetik, psixologik, ijtimoiy, kommunikativ va boshqa sohalar o'zaro bog'liq bo'lgan juda murakkab ta'limlardan biridir. Bu murakkab ta'limning asosi esa - musiqa bilan bog'liqdir.

Musiqa madaniyati ancha murakkab va keng qamrovli tushunchadir. Uni o'rganish uchun ko'plab olimlar izlanishlar olib borganlar (D.B.Kabalevskiy, M.T.Usova, A.V.Sokol, L.G.Dmitriyeva, A.N.Soxor, R.N. Shafeev).

Musiqa madaniyatining eng keng tarqalgan tushunchalari quyidagilardir:

- Tavsiflovchi ta'riflar, masalan, musiqa madaniyati barcha turdagi musiqiy faoliyat turlarining yig'indisi sifatida (kompozitsiya, ijro, musiqiy idrok);

- Ijtimoiy meros va an'analarga urg'u beradigan tarixiy ta'riflar (masalan, meros bo'lib qolgan musiqa madaniyati jabhalari);

- Ijtimoiy meros va an'analarga urg'u beriladigan me'yoriy ta'riflar (masalan, musiqa madaniyati ijtimoiy muhit tomonidan belgilanadigan turmush tarzi sifatida);

- Xulq-atvor va qadriyatlarini ta'kidlaydigan ta'riflar (masalan, madaniyat - bu moddiy qadriyatlar);

- Psixologik ta'riflar, bunda musiqa madaniyatining ahamiyati uning muayyan muammolarni hal qilish natijasi ekanligida ko'rinadi (masalan, musiqa madaniyati hayot tarzi sifatida);

- O'quv jarayonida musiqa madaniyati bilan tanishishni ta'kidlaydigan ta'riflar;

- Musiqa madaniyatini tashkil etish, tasniflash yoki modellashtirishni ta'kidlaydigan tarkibiy ta'riflar;

- Madaniyat insonlarning (bastakorlar, ijrochilar, sayqallovcilar, ovoz muhandislari) ijod mahsuli ekanligini, ularning faoliyati mahsuli ijtimoiy o'zaro ta'sir mahsuli sifatida avloddan-avlodga o'tib borishini ta'kidlaydigan genetik ta'riflar;

- G'oyalarni ta'kidlaydigan ta'riflar (masalan, musiqa madaniyati sub'ektdan shaxsga o'tadigan g'oyalar oqimi).

Axloqiy va estetik his-tuyg'ular, e'tiqodlar, musiqiy did va ehtiyojlar, bilim, ko'nikma va malakalarsiz musiqa san'atini (idrok etish, ijro etish) egallash mumkin emas (idrok etish, ijro etish). Shuningdek, shaxsning musiqiy -ijodiy qobiliyatlari ham musiqa madaniyatining ajralmas qismidir. Shunday qilib, musiqa madaniyati ko'plab tadqiqotchilar tomonidan tarkibiy elementlar o'zaro bog'liq bo'lgan tizim sifatida taqdim etilishi mumkin.

A.N. Soxor o'zining "Musiqa sotsiologiyasi va estetikasi masalalari" asarida musiqa madaniyatini murakkab tizim sifatida ko'rib chiqadi, uning tarkibiy qismlarini shunday deb ta'riflaydi: "Ma'lum bir jamiyatda yaratilgan va saqlanib qolgan musiqiy qadriyatlar; yaratish va saqlash bo'yicha faoliyatning barcha turlari; musiqiy qadriyatlarini tarqatish, ko'paytirish va ulardan foydalanish; ushbu turdagi faoliyatning barcha sub'ektlari birgalikda va ularning muvaffaqiyatini ta'minlaydigan bilimlari, ko'nikmalari va boshqa fazilatlar; barcha muassasalar va ijtimoiy institutlar, shuningdek, ushbu faoliyatga xizmat qiluvchi asbob-uskunalar va jihozlardan iborat" [13].

XULOSA

Ko'plab tadqiqotchi olimlarning izlanishlaridan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, musiqa madaniyati musiqa (musiqiy janrlar, shakllar, musiqiy ifoda vositalari, bastakorlar, ijrochilar, musiqa asarlarining yaratilish tarixi) haqidabilimlarni birlashtirgan murakkab va ko'p qirrali tizimdir.

PEDAGOGIKA

U musiqiy ko'nikmalar: turli janr va musiqiy uslubdagi musiqani idrok etish qobiliyati; musiqiy malakalar: cholg'ularni chalish, varoqdan notalarni o'qishdan iborat.

Musiqa madaniyati rivojlanishida uzluksizlik mavjud bo'lib, u allaqachon rivojlangan musiqiy qadriyatlardan foydalanishni o'z ichiga oladi, musiqa madaniyatining rivojlanish jarayonida ba'zi musiqiy qadriyatlar rivojlanadi, boshqalari esa rad etiladi. Musiqa madaniyatidagi yangiliklar, o'zgarishlar dastlab jamiyat tomonidan har doim ham ijobiy qabul qilinavermaydi, lekin bora-bora yangilanishlar musiqa madaniyatida an'anaviy tus oladi.

Musiqa ta'limi tizimini modernizatsiya qilish munosabati bilan zamonaviy axborot va multimedia ta'lim texnologiyalaridan foydalanish keng tus olmoqda. I. B. Gorbunova "Musiqa-kompyuter texnologiyalari fenomeni yangi ta'lim ijodiy muhiti sifatida" nomli maqolasida "Zamonaviy musiqa ta'limiga yo'naltirilgan yangi axborot texnologiyalari an'anaviy musiqa fanlari bilan bir qatorda musiqa asbobini tayyorlash uchun sharoit yaratadi, u musiqa kompyuterini yangi musiqa asbobi sifatida biladi"- deb yozadi [14].

Yoshlarning estetik tafakkurini yuksaltirishda musiqiy madaniyatning funksional ahamiyatini quyidagilarda deb izohlaymiz:

-Yoshlarni musiqiy madaniyat talablari asosida tarbiyalashda;

-Dunyo go'zalliklarini (insonlarni, tabiatni, musiqiy, ma'naviy- madaniy asarlarni) his qila olish, tushunish tuyg'usini shakllantirishda;

-Ma'naviy boy va estetik jihatdan rivojlangan, o'z xalqini, madaniyati va an'alarini sevuvchi hamda boshqa xalqlar madaniyati va an'alarini tushunib, hurmat qiluvchi shaxsni tarbiyalashda;

- Musiqiy ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish, san'atning turli jabhalarida ifodali badiiy obrazni yarata olishda;

- Musiqiy madaniyat yo'nalishlari haqida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, turli san'at turlari tilining o'ziga xos xususiyatlarini o'zlashtirishga yordam berishda;

-Musiqiy asarlarni tinglovchi sifatida tarbiyalash va san'at bilan muloqot qilish zaruriyatini rivojlantirishda;

-Musiqiy didini rivojlantirishda;

-Musiqiy, fazoviy tasavvurni, tasviriy tafakkurni rivojlantirish, hissiy qobiliyatlar, ko'nikmalarni yuksaltirishda.

Bundan ko'rinib turibdiki musiqiy madaniyat-yoshlar estetik tafakkurini yuksaltirishda muhim omillardan biri ekan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Кроненберг М. Философия Канта и ее значение в истории развития мысли. Калининград, 2005
2. Кант И. Сочинения: В 6 т. Т. 6. М., 1966.
3. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – с.222.
4. Ибн Сино. Канон врачебной науки / Сино Ибн // Избр. : в 3 ч. ; Ч. 1 / сост. У. И. Каримов, Э. У. Хуршут. – Ташкент : Фан, 1994. – С. 91.
5. Ибн Сино. Канон врачебной науки / Сино Ибн // Избр. : в 3 ч. ; Ч. 1 / сост. У. И. Каримов, Э. У. Хуршут. – Ташкент : Фан, 1994. – С. 145.
6. Серебряков, Б. С. Трактат Ибн Сины (Авиценны) о любви / Б. С. Серебряков. – Тбилиси : Мецниереба, 1976. – С. 22
7. Маврулов А. Ўрта асрларда Ўзбекистон санъатидаги трансформацион жараёнлар // "Ўрта асрлар Шарқ алломалари ва мутафаккирлари тарихий меросида санъат ва маданият масалалари". Халқаро илмий-назарий ва амалий конференция материаллари тўплами.–Тошкент: Lesson press, 2016.
8. Сковорода Г. С. Сочинения: в 2 т. — М.: Мысль, 1973. — Т. 2. — 486 с.
9. Трубецкой Е. Н. Смысл жизни. — СПб.: Азбука; Азбука-Аттикус, 2017. — 348 с.
10. Лейбниц Г. В., Сочинения, в четырёх томах. Серия: Философское наследие. М.: Мысль, 1982—1989.
11. Лосев А. Ф., Музыка как предмет логики, М. 1927.
12. Асафьев Б., Избранные статьи о музыкальном просвещении и образовании, Л., 1965.
13. Сохор А.Н. Вопросы социологии и эстетики музыки: Сб. ст. Л.: Сов. Композиторов, 1980.294 с
14. Известия Российского государственного педагогического университета им.А.И.Герцена.Горбунова И.Б. Феномен музыкально-компьютерных технологий как новая образовательная творческая среда.Том 4 №9, 2004.(123-137с).